

TURKIYANING TASHQI SIYOSATIDA “TIKA”NING O’RNI

Raxmonova Marjona Bobir qizi

TDSHU 1-bosqich magistri

@rmarjona78@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10394500>

Annotatsiya. Mazkur maqolada so‘nggi o‘n yillarda global yondashuv deyarli umumlashtirilib, inson xavfsizligi va u bilan bog‘liq bo‘lg‘an jamiyat xavfsizligi zamonaviy xalqaro munosabatlarning eng muhim mavzularidan biri ekanligini, globallashuv oqibatida kuchning darajalari ham o‘zgarib borayotganini, davlatlar ba‘zan harbiy jihatdan o‘z kuchlarini ko‘rsatadi, ba‘zan esa madaniyat, an‘ana, ta‘limni tashqi siyosat darajasiga olib chiqishi haqida gap ketadi. Turkiyaning yumshoq kuchi uning boy tarixi, madaniyati va Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turuvchi geografik joylashuviga asoslangan. Turkklar endi ularni tashqi hamda ichki siyosatida qo‘llab kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Yumshoq kuch, globallashuv, TIKA, tashqi siyosat ko‘zgusi, dasturlar loyihas


Tarixdan ma‘lumki, mamlakatlar bir-biriga hukmronlik qilishga, mintaqalar ustidan hukmronlik o‘rnatishga harakat qilib ko‘plab urushlar olib bordi. Albatta, bu urushlarda hal qiluvchi omil asosan kuch edi. Globallashuv va dunyodagi kuchlar muvozanatining o‘zgarishi xalqaro siyosatni shakllantiradi. Bu o‘zgarishlar yangi diplomatiya yondashuvlari paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu yangi diplomatiya boshqa mamlakatlarning jamoatchilik fikri va bir-biri o‘rtasidagi munosabatlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq edi. Tilni targ‘ib qilish, ta‘lim va ilm-fan sohasida yumshoq kuch strategiyalari, vositalari va tadbirlaridan samarali foydalanish turk diplomatlari va xalqaro aloqalar bo‘yicha ekspertlar tomonidan hamkorlik, biznes rivojlanish yordamida, ijobiy va jozibador xalqaro imidjiga Turkiya yumshoq kuch siyosati orqali amalga oshirdi. Masalan, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzdi, Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada, qiyosiy-siyosiy, case study tahlil metodlaridan hamda aksioma va perspektiv yondashuv metodologiyasidan foydalanilgan.

Mavzuni o‘zbekistonlik olimlardan A. Jalilov, M. Muhammadsidiqov g‘arb olimlaridan W. Hale, F. Donelli, turk olimlaridan İ. Kalın, A. Davuto‘g‘lu, C.Çandar, Ç. Buğdaycı, o‘rganishgan.


NATIJALAR VA MUHOKAMA



Yumshoq kuchni muhokama qilishdan oldin, avvalo, kuch nima ekanligini aniqlashimiz kerak. Kuch - boshqa aktyorlarga ta'sir qilish va ularning afzalliklarini shakllantirish qobiliyati. Kuch vujudga kelishi uchun uchta asosiy shart talab qilinadi. Birinchidan, mamlakatlarda imkoniyatlar bo'lishi kerak, boshqa aktyorlarga ta'sir qila oladigan darajada. Harbiy va iqtisodiy kabi o'lchanadigan elementlar madaniyat kabi o'lchash qiyinroq qadriyatlar tizimi va turmush tarzi birinchi o'lchovni tashkil qiladi. Ikkinchidan, ushbu kuch elementlarini saqlab qolgan aktyorlar ongli bo'lishi kerak, ularga ega bo'lish, ular o'z aktivlarini kapitallashtirish uchun irodaga ega bo'lishi kerak.

"Yumshoq kuch" tushunchasidan Jozef Nay birinchi marta 1980-yillarda foydalana boshlagan. Nye fikriga ko'ra, maqsadga erishishning oson yo'lidan biri "Yumshoq kuch" - shunday kuchga egaki, jalb qilish orqali xohlagan narsangizga erishish, turli xil janglar va majburlashlardan ko'ra samaralidir. Bu yerda, ishonchlilik va ishontirish qobiliyati asosiy yumshoq kuch elementlari hisoblanadi. Bu elementlardan foydalanish qonuniyligini ham ta'minlaydi. "Qattiq kuch" dan farqli o'laroq, yumshoq kuch ta'sir va jalb qilish usullarini tushuntiradi. Yumshoq kuchni turli omillar oziqlantiradi: Madaniyat - ta'lim, san'at, bosma va vizual ommaviy axborot vositalari, kino, she'riyat, adabiyot, arxitektura, oliy ta'lim (universitetlar, tadqiqot markazlar va boshqalar), nodavlat tashkilotlar, fan va texnologiya, innovatsiyalar, turizm salohiyati. Keyingi omillardan biri bu siyosiy qadriyatlar - mamlakatning demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, oshkoralik va xilma-xillikka, sodiqligini o'z ichiga olgan iqtisodiy hamkorlik aloqalaridir. So'nggi eng muhim omil, tashqi siyosat- mamlakatning umumiy manfaatlar va qadriyatlarga asoslangan ittifoq va koalitsiyalar qurish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu kuchlar orqali yumshoq kuch siyosati olib boriladi. Yana bir asosiy omil mamlakatning yumshoq kuch salohiyati uning siyosiy tizimidir. Bu usuldan foydalanmoqchi bo'lgan mamlakat erkinliklar, kafolatlar asosiy huquq va adolatli, shaffof va demokratik jamiyat qura olishi lozim[1].

Shu munosabat bilan, Turkiyaning yumshoq kuchining asosiy ustunlari uning demokratik tajribasi, tarixidagi yuksalishlar va pasayishlarga qaramasdan turk demokratiyasining mustahkamlanishi qonuniylikni qo'lga kiritish, Turkiyada jamoatchilik ham muhim ro'l o'ynaydi bu esa mintaqaviy va global aktyor sifatidagi mavqeini yana bir bor ko'rsatishga xizmat qiladi. Turkiyaning yumshoq kuchi siyosati shakli boshqa mamlakatlardan farq qiladi. Turkiyaning yumshoq kuch salohiyati Bolqon yarim orolidan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyogacha cho'zilgan bo'lib Turkiya qadriyatlari, uning tarixi va madaniy



chuqurligi sifatida, mintaqaviy dinamikasini safarbar qildi. Samuel Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" kitobidagi fikrlari global darajadagi mavzularidan biriga aylandi". Turkiyaning Sharqqa burilishi butun dunyo bo'ylab muhim tektonik siljish bo'ladi[2].

Shunday qilib, Turkiyaning o'zgarishi G'arbdan Sharqqa, Janubdan Shimolgacha hamma uchun tashvishga aylanadi". Turkiya yumshoq kuch siyosatini olib borish uchun xorij davlatlarida turli xil tashkilotlarning faoliyatini olib bordi.[3].

Misol uchun, Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA) Sovuq urushdan keyin Turkiya o'zining geosiyosiy mavqei va o'ziga xosligi bilan ko'proq ahamiyat kasb etdi. 2008 yili o'sha davr Tashqi ishlar vaziri Ahmet Davuto'g'li Turkiyanin globallashayotgan dunyoda nafaqat tashqi siyosat va geosiyosat, balki iqtisod va o'zlik nuqtai nazaridan ham qudratiga urg'u bergan edi. Buni "yumshoq kuch" elementlari sifatida ham ko'rish mumkin.[4]

TİKA (Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi) 1992-yilda, ayniqsa Turkiy Respublikalar va tarixiy va madaniy jihatdan bog'langan mamlakatimizning tabiiy geografiyasida mustahkam hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. TİKA, Tashqi ishlar vazirligiga qarashli 480-sonli qonun qarori bilan tashkil etilgan. TİKA 1995 yilgacha iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy faoliyat olib bordi, shundan so'ng ta'lim va madaniyat sohasidagi hamkorlikka e'tibor qarata boshladi. 2011-yilda Turkiyaning dinamik tashqi siyosat tashabbuslari va yirik global va mintaqaviy siljishlarning harakatlantiruvchi kuchi natijasida hamkorlikni rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida TİKAning tashkiliy tuzilmasi qayta tuzildi. Turkiyaning jahon va uning mintaqasida muhim aktyorga aylanish borasidagi sa'y-harakatlarining davomi sifatida tashqi siyosat haqidagi tushuncha 2000-yillardan boshlab sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. TİKAning asosiy vazifasi bu - Turkiyaning xalqaro rivojlanish hamkorlik faoliyati doirasida, mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va insoniy rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi hamda mushtarak tarixiy va madaniy merosini kelajakka olib boradigan barqaror loyiha va faoliyatlarni amalga oshirish. Agentlikning maqsadi: Hamkorlik vositalari va usullari bilan mahalliy va global muammolarga tez va doimiy yechim taklif qila oladigan samarali bir tashkilot bo'lish [5].

Ushbu maqsad va vazifalarga muvofiq TİKA o'z faoliyat geografiyasini kengaytirdi; 2002 yilda 12 ta bo'lgan dasturlarni muvofiqlashtirish idoralari sonini 2011 yilda 25 taga, 2012 yilda esa 33 taga ko'paytirdi. Bugungi kunda Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi 61 davlatda 63 ta dasturlari



asosida 170 ta davlatda faoliyat yuritmoqda. Turkiya olib borayotgan faol va prinsipial tashqi siyosatga qarab, faoliyat yuritayotgan davlatlar soni kundankunga ortib bormoqda. Turkiyaning TIKA orqali do'st, qardosh va qarindosh o'lkalarga qaratilgan sa'y-harakatlarining asosini tinch bir dunyoni yaratish yotadi. Bu xaritada TIKAning dasturlari amalga oshirilayotgan davlatlar keltirilgan.



Turkiya

Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an "Dünyanın her yerine uzanıp nerede dertli varsa Türkiye olarak oraya gidip az veya çok yardımda bulunacağız." Buni tarjiması shunday ma'no beradiki, "Turkiya davlati sifatida butun dunyoga yordam qo'lini uzatamiz va qayerda muammo bo'lsa, ozmi-ko'pmi yordam beramiz" deya ta'kidladi [5]. Bundan tashqari Madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy o'z nutqida TIKAning Turkiya tashqi siyosatining ko'zgusi ekanligini ta'kidladi [6].

TIKAning faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2019 yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan raqamli tahlillar bilan ta'lim, sog'liqni saqlash, ma'muriy va fuqarolik infratuzilmasi, iqtisodiy xizmatlar, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan loyiha va tadbirlar ko'zga tashlandi. Shu munosabat bilan ta'lim sohasi ijtimoiy xizmatlar va infratuzilma sohasida eng faol ekanligi kuzatildi. Ta'lim kichik sohasidagi ba'zi katta loyihalar quyidagilardir: Bangladeshdagi Turk institutini qurish va jihozlash, Pokistondagi Karigar kasb-hunar ta'limi institutini qo'llab-quvvatlash, Ozarbayjon va Ruminiyada ta'lim salohiyatini oshirish. Sog'liqni saqlash xizmatlarining salohiyatini oshirish, Niger-Turkiya Do'stlik kasalxonasini qurish va Niger sog'liqni saqlash tashkiloti kabi faoliyatlar orqali Albaniya va Afg'onistonda sog'liqni saqlash infratuzilmasini yaxshilash amalga oshirildi. Bu suv va sanitariya tadqiqotlari orqali mamlakatlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish va boshqa sohalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni minimallashtirishga qaratilgan. Keniyada "Odamlar uchun birinchi suv" loyihasi




va Pokiston, Gvineya va Namibiyada toza ichimlik suviga kirish kabi loyihalar bilan JSST standartlariga muvofiq suvga kirishni ta'minlash amalga oshirilgan[7].

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Turkiya Prezidenti rahnamoligida kuchli siyosiy iroda, faol tashqi siyosat yondashuvi va iqtisodiy o'sish ko'magida taraqqiyotga erishayotgan davlat hisoblanadi. Turkiya jahon miqyosida nom qozongan aktyorga aylandi. Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), hamkorlikni rivojlantirish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish orqali ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadigan tashkilot sifatida, kelajakdagi rejalarini yanada ham kengaytib kelmoqda. TIKA bugungi kunda Tinch okeanidan Markaziy Osiyoga, Afrikadan Bolqongacha, Yaqin Sharqdan tortib to Lotin Amerikasigacha bo'lgan 5 qit'aning 150 ga yaqin davlatida faoliyat olib boradi. Shu nuqtai nazardan, turli xil geografiyalarga tarqalgan muassasa sifatida, tadqiqot o'tkazish o'zi bilan bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Har biri mamlakatning turli iqlimi, ta'lim va davlat muassasalarining infratuzilmasi, ehtiyojlarining ustuvor yo'nalishlari, qonunchilik jarayonlari, o'zaro munosabatlar tizimi kabi ko'plab omillar qiyinchilikka sabab bo'ladi. Biroq, bu qiyinchiliklarga qaramay, ko'plab asosiy faoliyatni davom ettirish uchun xalqaro, fuqarolik jamiyati, ayniqsa mahalliy nodavlat tashkilotlar bilan aloqalar rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

References:

1. Joseph S. Nye, *Soft Power: The Means to Succeed in World Politics*, New York, Public Affairs, 2004.
2. Huntington, S. P. (1996). *The clash of civilizations and the remaking of world order*. New York. 238-248p
3. C. Çandar. (2009). *Turkey's 'soft power' strategy: A new vision for a multi-polar world*. Foundation for Political, Economic and Social Research, SETA Policy Brief No: 38. Retrieved from http://setadc.org/pdfs/SETA_Policy_Brief_No_38_Turkeys_Soft_Power_Strategy_Candar.pdf P.5-8
4. A. Davutoğlu. (2001). *Stratejik derinlik: Türkiye'nin uluslararası konumu [Strategic depth: Turkey's international position]*. Istanbul, Turkey: Küre Yayınları. P.15
5. TIKA - Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı



6. <https://www.tika.gov.tr/tr>
7. BAKAN ERSOY: "TİKA TÜRKİYE'NİN DIŞ POLİTİKASININ AYNASIDIR"<https://basin.ktb.gov.tr/TR-230293/bakan-ersoy-tika-turkiyenin-dis-politikasinin-aynasidir.html>
8. TİKA - Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı
9. https://www.tika.gov.tr/tr/yayin/liste/tika_faaliyet_raporlari-22

